O'QUV LEKSIKOGRAFIYASINING NAZARIY ASOSLARI VA TAVSIFIY XUSUSIYATLARI

Musurmonqulov Adham Abdurashid o'g'li
Termiz davlat pedagogika instituti
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quv leksikografiyasining shakllanishi, o'quv lug'ati tushunchasining nazariy asoslari hamda uning boshqa lug'at turlaridan farqli jihatlari yoritilgan. O'quv lug'atlarining ta'limiy maqsadga yo'naltirilganligi, lingvodidaktik xususiyatlari, tuzilish tamoyillari va foydalanuvchi omiliga asoslangan mezonlari ilmiy qarashlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: o'quv leksikografiyasi, o'quv lug'ati, lingvodidaktika, leksikografiya, ta'limiy lug'at, lug'atshunoslik, leksik minimum, til o'qitish, antropotsentrik yondashuv, semantizatsiya.

Abstract. This article discusses the formation of educational lexicography, the theoretical foundations of the concept of educational dictionaries, and their distinguishing features from other types of dictionaries. The educational orientation, linguodidactic characteristics, structural principles, and user-centered criteria of educational dictionaries are analyzed based on scientific approaches.

Key words: educational lexicography, educational dictionary, linguodidactics, lexicography, educational dictionary studies, lexical minimum, language teaching, anthropocentric approach, semantization, dictionary compilation.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы формирования учебной лексикографии, теоретические основы понятия учебного словаря и его отличительные особенности от других типов словарей. На основе научных подходов анализируются образовательная направленность, лингводидактические особенности, принципы построения и пользовательские критерии учебных словарей.

Ключевые слова: учебная лексикография, учебный словарь, лингводидактика, лексикография, словареведение, лексический минимум, обучение языку, антропоцентрический подход, семантизация, составление словарей.

Leksikografiyaning o‘quv lug‘atchilik tarmog‘i tilshunoslikda shakllangandan so‘ng, soha vakillarida o‘quv lug‘ati haqida qanday lug‘at, umumiy lug‘atdan farqi nimada, asosiy vazifalari nimalardan iborat, boshqa tipdagi lug‘atlarga qiyoslash kabi turli xil qarash, savollar, yondashuvlar paydo bo‘lgan. XX asr boshlarida shu kabi savollarga jahon tilshunosligida tilning davr talabidan kelib chiqib, o‘quv lug‘atchilikning keyingi rivoji uchun xizmat qiladigan ilmiy fikrlar, tadqiqotlar shakllandi. Bugungi kunda esa o‘quv lug‘atlarning antropotsentrik yondashuv asosidagi yangicha nazariyasi hamda amaliyoti bilan bog‘liq tadqiqot ishlari bajarilmoqda.

Ma’lumki, har qanday lug‘at shakllari yaratilishida aniq ko‘zlangan didaktik yoki kommunikativ maqsad yotadi. Lug‘at orqali foydalanuvchilar til birliklarining barcha jihatlarini o‘rganish, ma’nolarini tushunish va nutqda to‘g‘ri, o‘rinli ishlata bilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Lug‘atlarning barcha turini o‘quv jarayoniga tatbiq etish, foydalanishga yo‘naltirish mumkin bo‘lsa-da, faqat ta’lim

tizimi, o'quv jarayoniga, xususan, maktab o'quvchilariga mo'ljallangan lug'at turi o'quv lug'ati hisoblanadi.

Lug'atning bu turi boshqa lug'atlardan o'zining maqsadga yo'naltirilganligi, tuzilish tamoyillari, pedagogik funksiyalari kabi bir qator jihatlari bilan farqlanadi. Bunday lug'atlar o'quvchi yoshlarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi, tilni o'zlashtirish darajasiga muvofiq ishlab chiqishni taqozo etadi. Shu sababli, leksikografiyada o'quv lug'atlari alohida ahamiyatga ega. O'quv lug'atlarning tuzilishi maxsus mezonlar, ya'ni lingvistik, ta'limiy, metodik talablarga asoslanadi.

O'quv lug'atlarning asosiy vazifasi sifatida foydalanuvchiga til birliklarini o'rganishda yordam berish, so'z boyligini oshirish, ma'no va qo'llanish doiralarini o'rgatish, shuningdek, til madaniyatini ham shakllantirish ko'zda tutiladi. Umuman olganda, o'quv lug'atlari til o'rganish jarayonida axborot beruvchi manba, shuningdek, metodik vosita sifatida ham xizmat qiladi.

O'quv lug'at tushunchasining yuzaga kelishi haqida M.A.Skopinaning ma'lumot berishicha, ilk marta "o'quv lug'ati" termini rus tilshunosligida Y.D.Polivanovning 1926-yilda yaratilgan "Qisqacha ruscha-o'zbekcha lug'at"i so'z boshisida qo'llanilgan. O'quv lug'atchilik terminiga nisbatan dastlabki ta'rifni L.A.Novikov bergan. U o'quv lug'ati vazifalari, muammolari, o'quv lug'atlarning tiplarini aniqlashtirishga qaratilgan "O'quv leksikografiyasi va uning vazifalari" nomli maqolasida shunday keltiradi: "Akademik leksikografiya bilan taqqoslaganda o'quv leksikografiyasi hajman kichik va katta ta'limiy maqsadga yo'naltirilgan leksikografiya". [1: 58-b.] Bu fikrdan o'quv lug'atlarning hajmi kichik, ta'limiy o'rni katta ekanligi anglashiladi. O'quv lug'atlarning ta'limiy maqsadidan kelib chiqib, hajm jihatdan ham kengaytirish mumkin.

O‘quv leksikografiya yuzasidan berilgan ushbu mezon (kichik hajm, katta maqsad) P.N.Denisovning “o‘quv lug‘ati”ga bergan ta’rifida ham aks etadi: “O‘quv lug‘ati – so‘zligi ma’lum bir mezon asosida tartiblangan, o‘quv-uslubiy talabga javob beradigan, odatda, hajman kichik bo‘lgan, ma’lumotni tezkor va qulay taqdim etadigan kitob”. [2: 216-b.] Yaratilayotgan o‘quv lug‘atlari ma’lum bir mezonlarga asoslanish kerakligi haqidagi yuqoridagi fikrning ahamiyatli ekanligini ta’kidlashimiz zarur.

“O‘quv lug‘ati” terminiga “O‘quv leksikografiyasining nazariy asoslari” nomli doktorlik dissertatsiyasida V.V.Morkovkin shunday izoh beradi: “Ma’lumot olish, til o‘rganishga yordam berish maqsadida maxsus yaratilgan har qanday janr va hajmdagi leksikografik asarga o‘quv lug‘ati deyiladi”. [3: 9-b.] Ushbu fikrdan o‘quv lug‘atining lingvistik, didaktik vosita ekanligi nazarda tutiladi.

“Mutaxassislar o‘quv lug‘atini yaratishda bir-biri bilan uzviy aloqador bo‘lgan ikki asosiy muammoning yechimi, ya’ni:

1) so‘zlikni tanlash, taqdim qilish usuli;

2) ta’limning bosqichi, nutqiy faoliyat vaziyati, nutq uslubi, ta’lim oluvchining ona tili, madaniy, ma’naviy saviyasi va boshqalarning hisobga olinishi lozimligini ta’kidlaydi”. [4: 4-b.] O‘quv lug‘atlarni mezon, talab asosida yaratishda muammo sifatida yuqorida qaralayotgan ikki holatga ilmiy yondashish va amal qilish lozim.

O‘quv lug‘atlarining tavsifiy jihatlari haqida B.Bahriddinova to‘xtalib, “o‘quv leksikografiyasi va uning obyekti bo‘lgan o‘quv lug‘atining tavsifiy belgilariga, asosan, uch xususiyat:

– ta’limiy maqsadga yo‘nalganlik;

– hajman chegaralanganlik;

– til (ona tili yoki boshqa til) o'qitish uchun mo'ljallanganlikka urg'u beriladi". [5: 27-b.] Tavsifiy jihatdan yuqorida keltirilgan uch xususiyatning barcha o'quv lug'atlarda inobatga olinishi o'rinli ekanligini biz ham ta'kidlamoqchimiz. Ushbu uch jihatdan hajmga yetakchi mezon sifatida yondashish, nazarimizda, doim ham amal qilinmaydi.

O'quv lug'atlarni shakllantirish mezon, talablari yuzasidan V.V.Morkovkin nazariyasida hajm yetakchi mezon sifatida olinmagan. U lug'atning ta'limga yo'nalganligi va lingvodidaktik xarakterga ega bo'lishi hamda lug'atning maqsadiga e'tibor qaratadi. "O'quv lug'atchiligi alohida lingvometodik yo'nalish, an'anaviy leksikografiya va lingvometodika fanlarining kesishmasida paydo bo'lgan fan", – deb ta'kidlaydi. [6: 31-b.] Uning fikricha, "o'quv leksikografiyasining asosiy bo'limlarini:

a) o'quv lug'atini tuzish nazariyasi va amaliyoti;

b) leksik minimumni tuzish nazariyasi va amaliyoti;

v) o'quv leksikostatistikasi nazariyasi va amaliyoti;

g) leksika bo'yicha lug'at tipidagi o'quv qo'llanmalarini yaratish nazariyasi va amaliyoti;

d) darslikka ilova qilingan va muayyan mavzu uchun beriladigan lug'atda til leksikasining taqdim etilishi va semantizatsiyasi nazariyasi va amaliyoti tashkil etishi lozim". [7: 28-b.] Yuqoridagi talablar o'quv lug'atlarning nazariy hamda amaliy jihatdan tashkil etilishini o'zida ifodalaydi. O'quv lug'atni yaratishda bu talablarning inobatga olinishi, albatta, lug'atning qiymatini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, o'quv leksikografiyasi zamonaviy tilshunoslikning muhim va mustaqil yo'nalishlaridan biri sifatida shakllangan bo'lib, uning asosiy obyekti hisoblangan o'quv lug'atlari ta'lim jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi.

O'quv lug'atlari umumiy lug'atlardan o'zining ta'limiy maqsadga yo'naltirilganligi, foydalanuvchi ehtiyojiga mosligi, lingvodidaktik xarakteri hamda metodik vazifalari bilan farqlanadi.

Maqolada qayd etilganidek, o'quv lug'atlarini yaratishda so'zlikni tanlash, foydalanuvchining yosh va bilim darajasini ҳисобга olish, til o'rgatish metodikasiga mos yondashuvni qo'llash kabi mezonlar muhim o'rin tutadi. Y.D.Polivanov, L.A.Novikov, P.N.Denisov, V.V.Morkovkin kabi olimlarning nazariy qarashlari o'quv leksikografiyasining shakllanishi va rivojlanishida muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilgan.

Bugungi kunda o'quv lug'atlarini antropotsentrik tamoyillar asosida yaratish, ularning lingvistik va metodik imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki o'quv lug'atlari nafaqat til birliklari haqida ma'lumot beruvchi manba, balki o'quvchining nutqiy kompetensiyasini rivojlantiruvchi, til madaniyatini shakllantiruvchi samarali didaktik vosita sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Скопина М.А. Об одном существенном типологическом признаке учебного словаря //Теоретические основы разработки словарей учебного типа: Сб. научных трудов. / Подред. Н.М. Шанского, Е.А. Быстровой. − М: НИИОП АПН СССР, 1981.− С. 58-70.
2. Денисов П.Н. Лексика русского языка и принципы ее описания. – М: Русский язык, 1993. С. 216-217.
3. Морковкин В.В. Основы теории учебной лексикографии: Дисс. ... д-ра филол. наук (в форме научного доклада). – М.: Институт русского языка им. А.С. Пушкина, 1990. – 72 с.

4. Денисов П.Н. Учебная лексикография: итоги и перспективы. Проблемы учебной лексикографии. – М., Изд.-во Моск.ун-та, 1977. 189 с.
5. Баҳриддинова Б.М. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол. фан. докт. (DSc) ... дисс. – Самарқанд, 2020. – 266 б.
6. Морковкин В.В. Учебная лексикография как особая лингвометодическая дисциплина // Актуальные проблемы учебной лексикографии. – М.: Русский язык, 1977, – 172 с.